

## TURLI MAMLAKATLARDA KRIPTOVALYUTALARNI TARTIBGA SOLISH

*Ibragimov G'anijon G'ayratovich- TDIU, "Innovatsion Menejment"*

*kafedra PhD dotsenti,*

*Alijonov Sarvarbek Solijon o'g'li- TDIU, "Menejment" Fakulteti, 3-kurs  
talabasi*

*Mazkur ilmiy ishda kriptovalyutalarni tartibga solish bo'yicha dunyo mamlakatlarining yondashuvlari tahlil qilinadi. Ilimiy ishda AQSh, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Dubay va O'zbekiston kabi hududlarning iqtisodiy va huquqiy siyosatlari batafsil o'rganilgan. Ilimiy ishda ikki asosiy yondashuv ajratib ko'rsatiladi: Taqiqlash va rag'batlantirish. Xitoy kabi davlatlar firibgarlik va iqtisodiy xavflarni minimallashtirish uchun qat'iy cheklolarni qo'llagan bo'lsa, Yaponiya va Dubay innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi siyosatni amalga oshirmoqda. Yevropa Ittifoqining yagona tartibga solish modeli – MiCA qonuni – transchegaraviy kripto faoliyatni boshqarishda muhim ahamiyatga ega.*

*Ushbu tadqiqotda global kripto sanoatini tartibga solishdagi yutuqlar va muammolarni tahlil qilish orqali turli davlatlarning o'zaro tajriba almashuvi va umumiy standartlar joriy etish zaruriyati yoritiladi. Ilimiy ish innovatsion texnologiyalarning barqaror rivojlanishi va xalqaro hamkorlik uchun strategik yo'nalishlarni aniqlashga qaratilgan.*

## РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТОВАЛЮТ В РАЗНЫХ СТРАНАХ

*Ибрагимов Ганидэжон Гайратович - ТДИУ, кандидат экономических наук,  
доцент кафедры «Инновационный менеджмент»,*

*Алиджонов Сарварбек Солидэжон сын - ТДИУ, факультет «Менеджмент»,  
студент 3 курса*

*В данной научной работе анализируются подходы стран мира к регулированию криптовалют. В научной работе подробно изучается экономическая и правовая политика США, Евросоюза, Китая, Японии, Индии и таких регионов, как Дубай и Узбекистан. В научной работе выделяются два основных подхода: запрет и поощрение. Такие страны, как Китай, ввели строгие ограничения, чтобы минимизировать мошенничество и экономические риски, а Япония и Дубай проводят политику поддержки инноваций. Единая модель регулирования Европейского Союза – Закон MiCA – имеет важное значение для управления трансграничной криптовалютной деятельностью.*

*В данном исследовании подчеркивается необходимость взаимного обмена опытом и внедрения общих стандартов разными странами путем анализа достижений и проблем в регулировании мировой криптоиндустрии. Научная работа направлена на определение стратегических направлений устойчивого развития инновационных технологий и международного сотрудничества.*

## **REGULATION OF CRYPTOCURRENCIES IN DIFFERENT COUNTRIES**

*Ibragimov Ganijon Gayratovich - TDIU, PhD associate professor of the "Innovative Management" department,*

*Alijonov Sarvarbek Solijon son - TDIU, Faculty of "Management", 3rd year student*

*In this scientific work, the approaches of the countries of the world to the regulation of cryptocurrencies are analyzed. The economic and legal policies of the United States, the European Union, China, Japan, India, and regions such as Dubai and Uzbekistan are studied in detail in the scientific work. Two main*

*approaches are distinguished in the scientific work: Prohibition and promotion. Countries such as China have implemented strict restrictions to minimize fraud and economic risks, while Japan and Dubai are implementing policies that support innovation. The European Union's single regulatory model – the MiCA Act – is essential in managing cross-border crypto activities.*

*This study highlights the need for mutual exchange of experience and the introduction of common standards by different countries by analyzing the achievements and challenges in the regulation of the global crypto industry. The scientific work is aimed at determining strategic directions for the sustainable development of innovative technologies and international cooperation.*

***Kalit so'zlar:*** *Kriptobalyuta, iqtisodiyot, xalqaro, innovatsiya, moliyaviy aktivlar, xavfsizlik, kiberjinoyat, sanoat, infratuzilma, birja.*

***Ключевые слова:*** *Криптовалюта, экономика, международный, инновации, финансовые активы, безопасность, киберпреступность, промышленность, инфраструктура, фондовая биржа.*

***Keywords:*** *Cryptocurrency, economy, international, innovation, financial assets, security, cybercrime, industry, infrastructure, stock exchange.*

## **Kirish**

So'nggi yillarda kriptovalyutalar global moliyaviy tizimda muhim o'rin egallay boshladi. Ularning markazlashgan xususiyati, an'anaviy moliyaviy institutlardan mustaqilligi va texnologik afzalliklari nafaqat investorlar va tadbirkorlarni, balki hukumatlarning ham e'tiborini tortmoqda. Shunga qaramay, kriptovalyutalarning noaniq huquqiy maqomi va ular bilan bog'liq xavf-xatarlar (masalan, firibgarlik, pul yuvish va iqtisodiy nazorat yo'qolishi) dunyo mamlakatlarida bu sohani tartibga solish zaruratini keltirib chiqardi.

Har bir davlat kriptovalyutalarga turli xil yondashuvni qo'llaydi. Ayrim davlatlar, masalan, Xitoy, kriptovalyutalarni qattiq cheklov ostiga olgan bo'lsa, Yaponiya va Dubai innovatsiyalarni rivojlantirish va global yetakchilikni qo'lga

kiritish maqsadida ularni qonuniylashtirish va rag‘batlantirish yo‘lidan bormoqda. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari yagona qonunchilik modeli – MiCA qonuni- (MiCA qonuni (Markets in Crypto-Assets Regulation) — bu Yevropa Ittifoqining kripto-aktivlar bozorlarini tartibga solish bo‘yicha huquqiy me‘yorlari bo‘lib, uning asosiy maqsadi kripto-aktivlar va ularning muomalasini aniq, barqaror va xavfsiz boshqarishdir)<sup>1</sup> – orqali kriptoaktivlarni transchegaraviy boshqarishni taklif qilmoqda.

Mazkur ishda dunyo mamlakatlarida kriptovalyutalarning tartibga solinish jarayonlari, turli huquqiy yondashuvlar va ularning iqtisodiy hamda texnologik oqibatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – davlatlarning kriptovalyutalarni boshqarishda duch kelayotgan yutuqlari va muammolarini yoritish hamda xalqaro tajribaning umumiy xulosalarini aniqlashdir.

Turli rivojlangan mamlakatlarda va O‘zbekistonda kriptovalyutalar qanday tartibda joriy qilinadi:

Kriptovalyutalar oxirgi o‘n yillikda dunyo iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylangan bo‘lsa-da, ularni tartibga solish masalasi hanuz global darajada murakkab muammo bo‘lib qolmoqda. Har bir mamlakatning iqtisodiy sharoiti, texnologiyaga bo‘lgan munosabati va huquqiy yondashuvi kriptovalyutalarga oid qonunlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Quyida dunyoning turli burchaklarida kriptovalyutalarni tartibga solishdagi asosiy tamoyillar ko‘rib chiqiladi.

-AQSh. Amerika Qo‘shma Shtatlari kriptovalyutalarni tartibga solishda murakkab va ko‘p qirrali yondashuvga ega. Kriptovalyutalar bu mamlakatda moliyaviy aktiv sifatida tan olinadi, ammo to‘lov vositasi sifatida keng qo‘llanilmaydi. Mamlakatning asosiy nazorat organlari – Qimmatli qog‘ozlar va birjalar komissiyasi (SEC), Tovar fyucherslari savdo komissiyasi (CFTC) va Ichki daromadlar xizmati (IRS) – kriptovalyutalar bilan bog‘liq operatsiyalarni

---

<sup>1</sup> <https://eur-lex.europa.eu>

nazorat qiladi. Shu bilan birga, DeFi (markazlashmagan moliya) va stablecoinlar uchun yangi tartib-qoidalar ishlab chiqilmoqda.

-Yevropa Ittifoqi. Yevropa Ittifoqi (YI) davlatlari kriptovalyutalarni tartibga solishda yagona yondashuvni qabul qilgan. 2024-yilda kuchga kiradigan Kriptoaktivlar bozoriga oid qonun (MiCA) kriptovalyutalar uchun bir xil qoidalar belgilaydi. MiCA foydalanuvchilarni himoya qilishga, firibgarlikni kamaytirishga va kriptoaktivlar bilan bog‘liq bizneslarni rag‘batlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, ayrim YI davlatlari, masalan, Germaniya va Malta, kripto startaplar uchun qulay muhit yaratmoqda.

-Xitoy. Xitoy kriptovalyutalarni tartibga solishda qat‘iy cheklovchi siyosatni olib bormoqda. 2021-yilda hukumat kriptovalyutalarni qazib olish (mining) va savdosini to‘liq taqiqladi. Ushbu taqiqlarga sabab sifatida energiya sarfini kamaytirish va moliyaviy nazoratni mustahkamlash ko‘rsatildi. Shu bilan birga, Xitoy o‘zining markaziy bank raqamli valyutasi – e-CNY (raqamli yuan) ustida faol ish olib bormoqda.

-Yaponiya. Yaponiya kriptovalyutalarni qonuniy to‘lov vositasi sifatida tan olgan dunyodagi birinchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Moliyaviy xizmatlar agentligi (FSA) bu sohani qat‘iy nazorat qiladi. Kripto birjalari ruxsat olishlari va davlat tomonidan belgilangan qoidalarga rioya qilishlari shart. Bu esa Yaponiyada innovatsion muhit yaratib, mamlakatni kripto texnologiyalar sohasida global yetakchilardan biriga aylantirdi.

-Hindiston. Hindiston kriptovalyutalarga ehtiyotkorona yondashadi. 2022-yilda hukumat kriptovalyutalar orqali olingan daromadlar uchun 30% soliq joriy qildi. Shu bilan birga, mamlakat raqamli rupiya (CBDC) ishlab chiqishni jadallashtirmoqda. Biroq, kriptovalyutalarni to‘liq qonuniylashtirish masalasi hali ham munozarali.

-Dubay (BAA). Dubay kripto sanoati uchun global markazlardan biri sifatida rivojlanmoqda. Bu yerda kriptoaktivlarni tartibga solish bilan shug‘ullanuvchi maxsus tashkilot – Dubay Kriptoaktivlar Tashkiloti (VARA)

faoliyat yuritadi. Qulay biznes muhiti tufayli ko‘plab xalqaro kompaniyalar Dubayni tanlamoqda.

O‘zbekistonda kriptovalyutalar qanday tartibda joriy qilinadi: O‘zbekiston hukumati kriptovalyutalarni tartibga solish va ularni qonuniylashtirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. 2018-yil 2-sentabrda qabul qilingan PQ-3926-sonli qaror bilan kripto-birjalar faoliyatini tashkil etish va kripto-aktivlar aylanmasini tartibga solish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar belgilangan<sup>2</sup>.

2019-yil 21-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi tomonidan kripto-birjalar faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan. Ushbu nizomga ko‘ra, kripto-birjalar faoliyatini amalga oshirish uchun chet el yuridik shaxslariga O‘zbekiston hududida shu‘ba yoki boshqa korxonalarini ochish orqali litsenziya beriladi. Litsenziya olish uchun ariza beruvchi tomonidan ustav jamg‘armasining kamida 30 000 baravari miqdorida mablag‘ shakllantirilishi, shundan 20 000 baravari O‘zbekiston tijorat bankida alohida hisobvaraqa zaxiraga qo‘yilishi talab etiladi.

2021-yil 23-noyabrda O‘zbekiston fuqarolariga kriptovalyutalarni birjalardan sotib olish va sotishga ruxsat beruvchi qaror qabul qilindi. Biroq, norezidentlarga faqat xorijiy valyutada kripto-aktivlarni sotish huquqi berilgan.

2021-yil 11-noyabrda kripto-birjalarda barqaror tokenlarni chiqarish va chiqarishni ro‘yxatdan o‘tkazish, tokenlarni dastlabki taklifini joylashtirish bo‘yicha qoidalar belgilandi. Ushbu qoidalarga ko‘ra, kripto-birjalarda sotiladigan barcha tokenlar mulkiy ta‘minotga ega bo‘lishi kerak; ta‘minlanmagan tokenlarni chiqarish va joylashtirish taqiqlanadi.<sup>3</sup>

Shuningdek, 2021-yil 8-dekabrda O‘zbekistonliklarga kripto-aktivlar bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirish uchun tegishli litsenziya olish tartibi joriy etildi.

---

<sup>2</sup> <https://gov.uz>

<sup>3</sup> <https://lex.uz>

2023-yil 1-yanvardan boshlab, kriptovalyutalarni sotib olish yoki sotish faqat respublikada litsenziyalangan platformalarda ruxsat etildi.

Umuman olganda, O‘zbekiston hukumati kriptovalyutalarni qonuniylashtirish va ularni tartibga solish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Biroq, kripto-aktivlar bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirishda ehtiyotkorlik va qonunlarga rioya qilish muhimdir.

Quyidagi jadvalda ayrim mamlakatlarning kriptovalyutalarga bo‘lgan munosabati va ulardagi tartibga solish choralari taqdim etilgan:

1-jadval<sup>4</sup>

Mamlakat	Kriptovalyutalar bilan munosabat	Kriptovalyutalarga qoidalar va cheklovlar	Joriy yil: Tartibga solish darajasi	Kriptovalyutalarni qabul qilish darajasi	Kriptovalyutalar bo‘yicha rasmiy regulator
AQSh	Ijobiy, tartibga solinadi	SEC va CFTC tomonidan tartibga solinadi; ba’zi shtatlarda litsenziyalar talab etiladi	75%	Yuksalish (ko‘plab kompaniyalar va tijorat banklari kripto to‘lovlarni qabul qiladi)	SEC, CFTC, FinCEN, OFAC
Xitoy	Ta’qiqlangan, cheklangan	Kriptovalyuta qazib olish va savdosi ta’qiqlangan, lekin blokcheyn texnologiyasi ruxsat berilgan	20%	Kam (asosiy blokcheyn loyihalariga ruxsat berilgan)	Xitoy Markaziy Banki
Yevropa Ittifoqi	Tartibga solinadi, normativlar joriy etilgan	MiCA (Market in Crypto-Assets) qoidalari joriy etilgan, kripto mulklarning to‘lov tizimida ishlatilishi	85%	Yuqori (ko‘plab mamlakatlarda ruxsat berilgan)	ESMA, EBA
Japoniya	Ijobiy, tartibga solinadi	Kriptovalyutalar moliya xizmatlari sifatida rasmiylashtirilgan,	90%	Yuqori (ko‘plab kripto birjalari faoliyat yuritadi)	FSA (Financial Services Agency)

<sup>4</sup> SEC (Securities and Exchange Commission), CFTC (Commodity Futures Trading Commission), FinCEN (Financial Crimes Enforcement Network)

		FSA tomonidan nazorat qilinadi			
Germaniya	Ijobiy, tartibga solinadi	Kriptovalyutalar moliyaviy aktiv sifatida ko‘rib chiqiladi, soliq to‘lovlari mavjud	80%	O‘rtacha (ba‘zi to‘lov tizimlari qabul qiladi)	BaFin (Federal Financial Supervisory Authority)
Braziliya	Ijobiy, tartibga solinadi	Kriptovalyutalar to‘lov vositasi sifatida qabul qilinadi, soliqlar to‘lanadi	60%	O‘rtacha (faqat ayrim hududlarda)	CVM (Comissão de Valores Mobiliários)
Janubiy Koreya	Ijobiy, tartibga solinadi	Kripto birjalari va savdolariga soliq solinadi, maxfiylikni cheklovchi chora-tadbirlar	80%	Yuqori (kripto investitsiyalar keng tarqalgan)	FSC (Financial Services Commission)
Rusiya	Ta‘qiqlangan va tartibga solinadi	Kriptovalyutalar to‘lov vositasi sifatida ta‘qiqlangan, lekin maxsus ruxsatnoma bilan ishlash mumkin	50%	Kam (lekin qayta tiklanishlar mavjud)	Bank Rossii
Indoneziya	Ta‘qiqlangan, lekin cheklangan	Kriptovalyutalar to‘lov vositasi sifatida ruxsat berilmagan, lekin investitsiya aktivlari sifatida tan olinadi	70%	O‘rtacha (ko‘plab kripto savdo platformalari mavjud)	OJK (Otoritas Jasa Keuangan)

Yuqoridagi jadvalda Kriptovalyutalarni tartibga solish bo‘yicha mamlakatlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Ba‘zi mamlakatlar kriptovalyutalarni to‘liq qabul qilgan va ularni iqtisodiyotning bir qismi sifatida normativ va qonuniy tarzda tartibga solmoqda, boshqalari esa faqat investitsiya faoliyatini tartibga solgan, yoki butunlay ta‘qiqlagan.

**Turli mamlakatlarda kriptovalyutalarni joriy qilish bilan bog‘liq muammolar nimalardan iborat:**



1. Huquqiy noaniqlik. Kriptovalyutalar ko‘plab davlatlarda to‘liq qonuniy maqomga ega emas. Ba’zi mamlakatlar ularni moliyaviy aktiv sifatida ko‘rsa, boshqalari valyuta yoki to‘lov vositasi sifatida qabul qilishdan bosh tortmoqda. Bu noaniqlik biznes va investorlarni xavotirga solib, kripto sanoatining rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

2. Nazorat va xavfsizlik muammolari. Kriptovalyutalar markazlashmagan bo‘lib, ularning tranzaksiyalari davlat yoki moliyaviy tashkilotlar tomonidan kuzatilmaydi. Bu esa firibgarlik, pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish xavflarini oshiradi. Ayrim mamlakatlar ushbu xavflarni kamaytirish uchun qat’iy cheklovlar joriy qilmoqda.

3. Iqtisodiy barqarorlikka tahdid. Kriptovalyutalarning keng qo‘llanilishi davlatlar tomonidan chiqariladigan an’anaviy valyutalarning qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy suverenitetni yo‘qotishdan xavotirda.

4. Texnologik infratuzilmaning yetishmasligi. Ba’zi mamlakatlarda kriptovalyutalarni joriy qilish uchun zarur bo‘lgan texnologik infratuzilma mavjud emas. Bu muammo, ayniqsa, qashshoq va texnologik rivojlanmagan hududlarda yaqqol seziladi.

5. Energiya iste’moli va ekologik muammolar. Bitcoin va boshqa kriptovalyutalar qazib olish (mining) jarayonida katta hajmda elektr energiyasi talab qiladi. Bu ekologik muammolarni kuchaytirib, ba’zi davlatlarni qazib olishni taqiqlashga majbur qilmoqda. Masalan, Xitoy energiya sarfini kamaytirish maqsadida 2021-yilda kripto qazib olishni to‘liq taqiqladi. O‘zbekistonda ham bunday qonunbuzarliklar qonunan javobgarlikka tortiladi.

6. Xalqaro standartlarning yo‘qligi. Kriptovalyutalarning transchegaraviy xususiyati ularni tartibga solishni murakkablashtiradi. Har bir mamlakat o‘zining individual qonunlarini qabul qilgani bois, xalqaro savdo va hamkorlikda nizolar yuzaga kelmoqda.

7. Moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi. Ko‘plab davlatlarda aholi orasida moliyaviy savodxonlik darajasi past bo‘lib, kriptovalyutalarning

murakkab mexanizmini tushunishda qiyinchiliklar mavjud. Bu noto'g'ri qarorlar qabul qilishga va katta moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

8. Kripto bozorining o'zgaruvchanligi. Kriptovalyutalar bozorining haddan tashqari o'zgaruvchanligi ularni ishonchli to'lov yoki investitsiya vositasi sifatida qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bu esa davlatlar va moliyaviy tashkilotlarda xavotir uyg'otmoqda.

9. Markaziy banklarning raqobati. Ko'plab mamlakatlar o'z markaziy bank raqamli valyutalarini (CBDC) ishlab chiqmoqda. Bu esa kriptovalyutalar va CBDClar o'rtasida raqobatni kuchaytirib, ularning birgalikda ishlash imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Kriptovalyutalarni joriy qilishdagi asosiy muammolar huquqiy noaniqlik, xavfsizlik tahlikalari, iqtisodiy barqarorlikka bo'lgan tahdid va infratuzilmaning yetishmovchiligidan iborat. Ushbu muammolarni hal qilish uchun mamlakatlar xalqaro hamkorlikni kuchaytirishi, zamonaviy texnologik infratuzilma yaratishi va moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishi lozim. Faqat shu yo'l bilan kriptovalyutalar innovatsion va iqtisodiy rivojlanish vositasiga aylanishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan kriptovalyutalarni joriy qilish bo'yicha muammolarni mamlakatlar hal qilish uchun turli strategiyalar va choralardan foydalanganishlari kerak. Quyida asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha xalqaro tajribalar keltirilgan:

- Huquqiy va tartibga solish muammolari bo'yicha: Yagona qonunchilik bazasini yaratish va kriptovalyutalarni tartibga solish uchun aniq qonunlar va qoidalar ishlab chiqish.
- Litsenziyalash: Kripto-birjalar, hamyonlar va provayderlarni davlat tomonidan litsenziyalash va nazorat qilish.
- Pul yuvishga qarshi choralar: "KYC" (Mijozni tanib olish) va "AML" (Pul yuvishga qarshi) tizimlarini majburiy qilish.
- Texnologik muammolar bo'yicha: Texnologik bilimlarni oshirish: IT-mutaxassislarni tayyorlash va kripto-texnologiyalar bo'yicha treninglar o'tkazish.

- Kiberxavfsizlikni mustahkamlash: Ma'lumotlar himoyasi va xavfsizlik choralarini kuchaytirish, xakerlik hujumlariga qarshi texnologiyalarni joriy etish.
- Infratuzilma yaratish: Yaxshi ishlovchi internet tarmog'i va zarur texnologik resurslarni rivojlantirish.
- Moliyaviy savodsizlik va axborot yetishmasligi: Tadbirlar va treninglar, kriptovalyuta savdosi, xavflar va imkoniyatlar haqida seminar va vebinarlar o'tkazish.
- Maktab va universitetlarda ta'lim: Moliyaviy savodxonlik dasturlariga kripto-aktivlar mavzularini kiritish.
- Sug'urtalash tizimi: Kripto-birjalardagi mablag'lar yo'qotilishining oldini olish uchun sug'urta mexanizmlarini ishlab chiqish.
- Firibgarli va "piramida" sxemalari: Davlat nazorati: Firibgar loyihalarni aniqlash va jamoatchilikni ogohlantirish uchun maxsus nazorat organini tashkil qilish.
- Reyting va akkreditatsiya: Ishonchli kripto-loyihalar va platformalarni aniqlab, ularga davlat tomonidan akkreditatsiya berish.
- Energiya iste'moli muammolari: Yashil texnologiyalar kripto qazib olishda qayta tiklanadigan energiyalardan foydalanishni rag'batlantirish. Elektr energiyasi tariflarini boshqarish. Ishlab chiqaruvchilar uchun maxsus tariflar joriy qilish.

Kriptovalyutalarni joriy etishda kompleks va tizimli yondashuv kerak bo'ladi. Davlat, biznes va jamoatchilik o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va xavfsizlik choralarini kuchaytirish orqali bu muammolarni muvaffaqiyatli bartaraf etish mumkin.

Mamlakatimizda kriptoivalyutani joriy qilish bo'yicha qanday muammolar bor va ularni bartaraf etish uchun qanday choralar ko'rilmogda:

O'zbekiston respublikasi kriptobalyutani joriy qilish bo'yicha bir qator muammolarga duch kelmoqda. O'zbekistonda kriptoivalyutalarni huquqiy maqomi aniq belgilangan emas, bu esa ularni tartibga solishda noaniqliklarni

keltirib chiqaradi. Kriptovalyutalarni huquqiy maqomini olish uchun mamlakatimizda tartibga solish uchun aniq qoidalar va qonunlarni ishlab chiqishimiz zarur. Bu orqali investorlar va foydalanuvchilar uchun ishonchli va havfsiz muhit yaratishimiz mumkin.

Undan tashqari mamlakatimizda texnologik, kiberjinoyat va moliyaviy muammolar ham mavjud. Texnologik muammolarda kriptovalyuta va blockcheyn texnologiyalari bo'yicha mutahasislarni tayyorlash va ularning bilimlarini oshirish uchun ta'lim dasturlarini tashkil etishimiz zarur. Shuningdek, kiberhavfsizlikni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishimiz kerak.

Kriptovalyutalar uchun bog'liq bo'lgan kiberjinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish va ularni oldini olish uchun samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, foydalanuvchilarni xabardor qilish va ularni firibgarlikdan himoya qilish uchun ta'lim va ogohlantirish kompaniyalarini o'tkazish muhimdir. Ushbu yondashuvlar orqali O'zbekiston respublikasida kriptovalyutalarni joriy qilishda yuzaga keladigan muammolarni samarali bartaraf etishi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga kata hissa qo'shishlari mumkin.

### **Xulosa:**

Kriptovalyutalar dunyo miqyosida moliyaviy va texnologik inqilobni boshlab berdi, ammo ularni tartibga solish har bir mamlakatda turlicha kechmoqda. Bu jarayon mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, texnologik imkoniyatlari va siyosiy qarashlariga bog'liq.

Yevropa Ittifoqi kriptovalyutalarni tartibga solish borasida yetakchi hududlardan biri bo'lib, MiCA (Markets in Crypto-Assets) qonuni orqali yagona standart yaratdi. Ushbu yondashuv orqali investorlar huquqlarini himoya qilish, bozorni shaffoflashtirish va noqonuniy faoliyatlarning oldini olish maqsad qilingan. Bu yondashuv boshqa mamlakatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

AQShda tartibga solish bir xil emas: federal va shtatlar darajasidagi yondashuvlar o'rtasida tafovutlar mavjud. Moliya regulyatorlari, xususan SEC va

CFTC, kripto-loyihalarni nazorat qilish va investorlar xavfsizligini ta'minlash yo'lida qadamlar tashlamoqda, biroq hali ham qonunchilikda aniq aniqlik yetishmaydi.

Xitoy kabi davlatlar esa kriptovalyutalarning iqtisodiy xavfini inobatga olib, ularni to'liq taqiqlab qo'ygan. Buning o'rniga, davlat tomonidan boshqariluvchi raqamli valyutalarni — CBDC (Markaziy bank raqamli valyutasi) ni joriy etishga e'tibor qaratmoqda. Bu raqamli iqtisodiyot nazoratini to'liq davlat qo'lida saqlash imkonini beradi.

Yaponiya va Singapur kabi mamlakatlar innovatsiyalarni rag'batlantirish va tartibga solishni muvozanatli olib borish orqali ijobiy natijalarga erishmoqda. Kriptovalyutalarning qonuniy maqomi aniq belgilangan bo'lib, bozor ishtirokchilari uchun xavfsiz va shaffof muhit yaratilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston, kriptovalyutalarga ehtiyotkorona yondashmoqda. Bunda asosiy muammolar -huquqiy noaniqlik, texnologik infratuzilma yetishmasligi va moliyaviy xatarlarni boshqarish masalalari hisoblanadi. Kriptovalyutalarni tartibga solish uchun quyidagi choralar muhim:

- Huquqiy asoslarni yaratish va investorlarni himoya qilish;
- Firibgarlik va noqonuniy faoliyatlarning oldini olish;
- Kiberxavfsizlikni kuchaytirish va texnologik infratuzilmani rivojlantirish;
- Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish.

Umuman olganda, kriptovalyutalarni tartibga solish jarayonida har bir mamlakat o'z sharoitiga mos yondashuvni tanlamoqda. Biroq samarali yondashuv -investorlarning huquqlarini himoya qilish, texnologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga asoslanishi kerak. Xalqaro hamkorlik va standartlashtirilgan qonunchilik esa kriptovalyutalarning kelajakda global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanishida muhim rol o'ynaydi.

Mazkur xulosa turli mamlakatlarning tajribalarini tahlil qilish orqali O‘zbekiston kabi davlatlar uchun ham o‘ziga xos yo‘l topishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. European Parliament. (2024). Markets in Crypto-Assets Regulation (MiCA). Rasmiy hujjat.
2. SEC (Securities and Exchange Commission). (2024). Regulation of Digital Assets in the United States. Rasmiy sayt.
3. Monetary Authority of Singapore (MAS). (2024). Guidelines for the Use of Digital Tokens. Rasmiy sayt.
4. FATF (Financial Action Task Force). (2023). Virtual Assets and Anti-Money Laundering Recommendations. Rasmiy hujjat.
5. CoinDesk. (2024). Global Regulatory Developments in Cryptocurrency. Maqola.
6. IMF (International Monetary Fund). (2023). The Impact of Cryptocurrencies on Global Financial Stability. Ilmiy hisobot
7. Nakamoto, S. (2008). Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. Original whitepaper.
8. World Economic Forum. (2023). Navigating Cryptocurrency Regulations Worldwide. Hisobot.
9. <https://lex.uz>
10. <https://nrm.uz>